

PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)

№ 7- sonli

Urganch tumani

30 » may 2022 yil

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Urganch tumani xalq ta'limi bo'limi Nizom** asosida ish ko'ruvchi raxbar **O.Abduraximov** bir tomondan, keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «**ABU BAKR STROY**» MChJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi **M.Nurullaev** ikkinchi tomondan **Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №39-sonli maktab binosini joriy ta'mirlash** bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quydagi ta'riflar qo'llaniladi;

-**ijro xujjalari** – naturada bajarilgan ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqliggi tug'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'matilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjalalar, berkitiladigan ishlarni tasdiqlanganligi tug'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatlari konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjalalar;

-**qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib ko'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

-**vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

-**berkitiladigan ishlar** – sifati va aniqligini keyingi ishlarni bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'limgan keyinchalik bajariladigan ishlarni va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlarni;

-**shartnoma narxini bo'lib chikish** – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Smeta xujjalalarida ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №39-sonli maktab binosini joriy ta'mirlash ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №39-sonli maktab binosini joriy ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovnii amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlarni qiymati barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda **Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №39-sonli maktab binosini joriy ta'mirlash** narxlarda jami **241 000 000 (Ikki yuz qirq bir million) so'm**

4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quydagi xollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;

- ishlarni qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjalalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaсидаги shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

-barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartlariga muvofiq topshirish;

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;

- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor kilish;

- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta kilish;

- mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

- qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqqdim qiladi.

-mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni tuliq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi .mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlari bajarilganini isbotlovchi xujjalashtirish (ispolnitelnaya dokumentasiya) to'liq xajmda taqdim qiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnomaga bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTmachining MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;
 - ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul kilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat kilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
 - Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;
 - moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va moliyalashtirishni amalga oshirish;
 - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
 - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnomalar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova kilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.

15. Ob'ektni 10 kalendar kunida foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnomalar bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnomalar bo'yicha ishlarni Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №39-sonli maktab binosini joriy ta'mirlash ishlariiga 30 % miqdorida avans o'tkazadi, bu 72 300 000 (Yetmish ikki million uch yuz ming) so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №39-sonli maktab binosini joriy ta'mirlash uchun budjetdan maqsadli berilgan mablag'lar 3 banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)

19. Buyurtmachi tomonidan joriy ta'mirlashni moliyalashtirish bajarilgan ishlarni xajmi va sifati tekshirilish qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlarni qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qatt'iy sarflanadi.

21. Pudratchi joriy ta'mirlashni moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlarni qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomalar xisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarning miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzo laydi.

22. Buyurtmachiga joriy ta'mirlashni moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarning miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlarni qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomalar-xisob-varak-faktura» asos buladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga kadar mazkur shartnomalar bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini uzida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga kadar ob'ektning tasodifiyo yo'q kilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida buladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini yoki texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarni sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnomalar shartlariga va ishlarning xujjatlari uchun xujjatlari muvofikligini tekshiradi.

25. Berkililgan vakil yoki texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan tusiqsiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi berkililgan vakil yoki texnik auditorni ishlashtirish uchun joy bilan ta'minlaydi. Berkililgan vakil texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'lувчи masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyhasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan o'z rejasiga va ishlarning xujjatlari uchun joy bilan ta'minlaydi. Berkililgan vakil texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'lувчи masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir kilmaydigan ishlarning xujjatlariidan mayda chetga chikishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

- Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ischlarning paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bulishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar kursatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, utkazilgan sinovlar, materiallar uz vaktida yetkazib berilmasligi bilan boglik tuxtab kolishlar, qurilish texnikasining ishdan chikishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bulgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining kaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon kiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish choratadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BULMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bulmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki tulik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bulmaydigan kuch xolatlari amal kilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaktga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlari bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservasiya kilish uchun kanday choralar qurilishini muxokama kiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor kilinishini talab kilishga xaklidir.

X. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:

- barcha ishlarni tulik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyixa xujjalriga xamda qurilish me'yorlari, koidalari va texnik shartlariga muvofik barcha ishlarni bajarish sifatini;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjalarda ko'rsatilgan sertifikasiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofikligini;
- ishlarni qabul kilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarni dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiyl summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

XI. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin Urganch tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №39-sonli maktab binosini joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rivoja etilmaganda;
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjalriga muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor kilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortik muddatga to'xtatib ko'yilganda;
- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

konun xujjalriga muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor kilinishini talab qilish xuquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiyomatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomaning bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim koidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilinganda taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor kilinishiga yo'l qo'yilmaydi, konun xujjalarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XII . TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunida, boshka qonun xujjalarda xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida kuyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnomada bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;
- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;
- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlarni xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiklashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul kilish, tasdiklashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;
- shartnoma shartlariga muvofik tayyor xolda qabul kilish uchun takdim kilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul kilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

43. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

-Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa , majburiyatlarning bajarilmagan kismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% mikdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxiruniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlarni qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan mikdordan kam bajarsa, bajarilmagan kismining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lмаган) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.
44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxona atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tamonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.
45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor kilishga tug'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.
46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% dan oshmasligi kerak.
47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

XIII. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarini tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun xujjalardan belgilangan tartibda sudga murojat kilishlari mumkin.

XIV. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

49. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjalardagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Buyurtmachi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Pudratchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Pudratchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjalarning Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

50. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtaсидаги barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchi ni yo'qotadi.

51. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjalarni Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinchi tamonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

52. Mazkur shartnoma qurilish barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

53. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaсидаги mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdashuvni tomonlar mazkur shartnoma qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

54. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlarni yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlarni uchun unga xak to'lashni kechiktirishga xaqlidir.

55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjalari qo'llaniladi.

56. Mazkur shartnoma tomonlar imzolanib Budget kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va ushbu shartnoma 31.12.2022 yil gacha amal qiladi.

57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.


PUDRATCHI:

BUYURTMACHI:

«ABU BAKR STROY» MChJ	Urganch tumani xalq ta'limi bo'limi
Manzil: Urganch tumani Mergan ovul maxallasi	Manzil: Urganch t. Mustaqqilik ko'chasi 35 uy
Telefon: 88 299 88 88	Telefon: 35-21-501
x/r: 20 208 000 600 940 508 001	x/r: 401722860332177092100075039
INN: 305 843 545	INN: 201661399 OKED: 84112
Bank: Xamkorbank Xorazm mintakaviy filiali	Moliya vazirligi gaznachiligi
MFO: 01161	x/r: 23402000300100001010
IFUT: -	Bank: Markuziy bank Tosh.sh.
	MFO: 00014 INN: 201122919

Rahbar  M.Nurullaev

MO'



Rahbar

O.Abduraximov



Urganch tuman XTBga qarashli 39-son maktab binosini joriy ta'mirlash buyicha oylar davomida ishlarni bajarish grafigi

2-ilova

T/R	Ob'yekt nomi va manzili	Xajm birligining kiymati	2022 yil uchun ishlarni bajarish kiymati											
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1	Urganch tuman XTBga qarashli 39-son maktab binosini joriy ta'mirlash	241 000 000,0					72 300 000	168 700 000						

MU



Buyurtmachi



Pudratchi

MU

Urganch tuman XTBga qarashli 39-son məktəb binosini joriy tə'mirlash buyicha oylar davomida işlarnı mölyalashtırış grafiği

1-ilova

T/R	Ob'yekti nomi va manzili	Xajm birligining kiymati	2022 yil uchun mölyalashtırış kiyamati											
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1	Urganch tuman XTBga qarashli 39-son məktəb binosini joriy tə'mirlash	241 000 000,0												
	Avans summasi	72 300 000,00					72 300 000							
	Bajarilgan ish uchun	168 700 000,00						168 700 000						



Buyurtmachi



Pudratchi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNI
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Urganch tumani № 39 sonli o‘rta maktabni joriy ta’mirlash ishlari buyicha Pudrat shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va xujjat sanasi haqidagi ma’lumot: Urganch tuman xalq ta’limi bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan va tizimga 30.05.2022-yil EU53534562-tonli hujjat raqami bilan kiritilgan.

Mazkur loyixa O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi 1998-yil 29-avgustda qabul qilingan «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risidagi»gi Qonun talablariga javob beradi. Loyihada o‘zaro hisob-kitob qilish tomonlarning ma’suliyati, javobgarligi hamda nizolarning hal qilish tartibi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Urganch tuman yuridik xizmat ko‘rsatish
markazi bosh yuriskonsulti**

30.05.2022-yil



E.S. Yusupova